

Xizmatlar sohasining rivojlanishi


(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-dekabr

Bugungi kunda xizmatlar sohasi Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'r'a 2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4464,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,0 % ni tashkil etdi


2018 yilda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Ma'lumot uchun: 2017 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi 3611,4 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 853,5 mld. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2018 yil yanvar-noyabr oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 431,5 mld. so'mga ko'paydi.

2018 yilda ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mld. so'm



Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga transport xizmatlari (116,0 mld. so'mga), savdo xizmatlari 102,7 mld. so'mga), moliyaviy xizmatlar (71,7 mld. so'mga) hamda aloqa va axborotlashtirish (28,9 mld. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2018 yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar
kesimida xizmatlar ishlab chiqarish**


	Hajmi mln.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Qoraqalpogiston Respublikasi	4464908,9	113,0
Nukus sh.	2455771,5	114,6
Amudaryo	162029,4	106,3
Beruniy	169900,6	107,6
Qonliko'l	51210,0	111,3
Qorao'zak	48754,3	107,4
Kegeyli	59449,5	104,1
Qo'ng'irot	685961,7	118,9
Mo'ynoq	25378,3	106,1
Nukus t.	53775,1	107,4
Taxiatosh	38056,2	111,9
Taxtako'pir	49300,2	105,8
To'rtko'l	194152,6	107,0
Xo'jayli	214946,9	109,7
Chimboy	84814,8	107,0
Shumanay	46071,3	106,6
Ellikqal'a	125336,6	105,8

Hududlar o'rtaida eng katta hajm Nukus sh. (2755771,5 mln.so'm), Qo'ng'irot (685961,7 mln.so'm), Xo'jayli (214946,9 mln.so'm), To'rtko'l (194152,6 mln.so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Mo'ynoq (25378,3 mln.so'm) va Taxiatosh (38056,2 mln.so'm) tumanlarida kuzatilmoxda.


2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, 2018 yil yanvar-dekabr oylarida eng yuqori o'sish sur'atlari Qo'ng'iroq (118,9 %), Taxiatoш (111,9 %) Qanliko'l (111,3 %) tumanlari va Nukus sh. (114,6 %) qayd etildi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Kegeyli (104,1 %), Taxtako'pir (105,8 %), Ellikkala (105,8 %) va Mo'ynoq (106,1 %) tumanlarida kuzatildi.

**2018 yil yanvar-dekabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha
jami xizmatlar hajmida shahar va tumanlarning ulushi, %**




Jami xizmatlar hajmida eng katta ulushni hududlar o'rtasida Nukus shahri (55,0 %), Qo'ng'irot (15,4 %), Xo'jayli (4,8 %), va To'rtko'l (4,3 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Mo'ynoq (0,6 %), Taxiatosh (0,9 %) Shumanay (1,0 %), Qaraqalpog'stir (1,1%), Taxtako'pir (1,1 %) va Qanliko'l (1,2 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2405,7 ming so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish 11,4 % ni tashkil qildi.

2018 yil yanvar–dekabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlari, ming so'm



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus shahrida - 7845,9 ming so'm qayd etildi.


O'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining yuqori o'sish sur'ati Qo'ng'iroq tumanida - 17,4 % kuzatildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha eng kichik ko'rsatkich Taxiatosh tumanida - 525,6 ming so'm qayd etildi.

**2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	4464,9	113,0
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashdirish xizmatlari	332,4	107,7
moliyaviy xizmatlar	604,0	150,4
transport xizmatlari	1228,7	116,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	690,8	105,4
yashash va ovqatlanish xizmatlari	137,7	110,1
savdo xizmatlari	1122,5	103,5
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	159,8	102,7
ta'lim sohasidagi xizmatlar	208,1	109,4
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	49,0	103,1
ijara xizmatlari	101,2	110,0
kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	152,5	102,3
shaxsiy xizmatlar	182,7	103,3
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	54,0	122,3
boshqa xizmatlar	132,3	100,6

2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'y'cha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



- 1 Xizmatlar - jami
- 2 Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
- 3 Moliyaviy xizmatlar
- 4 Transport xizmatlari
- 5 Yashash va ovqatlanish xizmatlari
- 6 Savdo xizmatlari
- 7 Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

- 8 Ta'lim sohasidagi xizmatlar
- 9 Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar
- 10 Ijara xizmatlari
- 11 Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar
- 12 Shaxsiy xizmatlar
- 13 Me'morchilik sohasidagi xizmatlar
- 14 Boshqa xizmatlar

2018 yil yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (50,4 %); me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (22,3 %); transport xizmatlari (16,6 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining ulushi, %**

Transport xizmatlari	27,5%
Savdo xizmatlari	25,1%
Moliyaviy xizmatlar	13,5%
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	7,4%
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	4,7%
Shaxsiy xizmatlar	4,1%
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,6%
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	3,4%
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3,1%
Boshqa xizmatlar	3,0%
Ijara xizmatlari	2,3%
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	1,2%
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,1%

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport xizmatlari (jami xizmatlarning 27,5 %), savdo xizmatlari (25,1 %), moliyaviy xizmatlar (13,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (7,4 %) hissasiga to`g`ri keldi.

**2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Transport xizmatlari	1228,7 mlrd.so'm
	Savdo xizmatlari	1122,5 mlrd.so'm
	Boshqa xizmatlar	626,7 mlrd.so'm
	Moliyaviy xizmatlar	604,0 mlrd.so'm
	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	332,4 mlrd.so'm
	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	208,1 mlrd.so'm
	Shaxsiy xizmatlar	182,7 mlrd.so'm
	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	159,8 mlrd.so'm

Eng yuqori bozor xizmatlari hajmi transport xizmatlari (1228,7 mlrd.so'm), savdo xizmatlari (1122,5 mlrd.so'm), moliyaviy xizmatlar (604,0 mlrd.so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (332,4 mlrd.so'm), ta'lim sohasidagi xizmatlar (208,1 mlrd.so'm) bo'yicha kuzatildi.

Hozirgi vaqtda savdo sohasi iste'molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari hudud iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiyligi hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.


2018 yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 1122,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmidagi ulushi 25,1 % ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 76,8 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 15,0 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiyligi savdo xizmatlari hajmida 8,2 % ni egallaydi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



- Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar
- Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlарini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 604,0 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 150,4 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



**Qoraqalpog'iston Respublikasi
statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

Mas'ul:B.Tajibekov
(71)230-82-15